

BOSH MIYA YARIMSHARLARI ASSIMETRIYASI VA KASB TANLASH**Bozorova Farangiz Ergash qizi** va**Boltayeva Sabina Ilhom qizi***Shahrisabz davlat Pedagogika instituti**Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi**1.22-guruh talabalari***Annotatsiya**

Inson miyasining tuzilishi va funksional xususiyatlari uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Chapaqay bolalar odatda o'ng qo'lli bolalarga qaraganda boshqacha kognitiv, psixologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'ladilar. Buning asosiy sababi – ularning bosh miyasidagi yarim sharlarning funksional assimetriyasi bilan bog'liqdir. Kasb tanlashda shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari temperament xususiyatlari va fe'l atvori kabi xususiyatlarni ham inobatga olish lozim. Yoshlarni kasbiy tayyorlash masalasi hozirga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha davlat miqyosida dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Bu asosda etishning o'ziga xos nazariy muammolarini neyropedagogika fani o'rganadi. Ushbu maqolada bosh miya yarimsharlari assimetriyasi va kasb tanlashga doir bo'lgan ilmiy nazariy asoslar yoritilgan bo'lib neyropedagogika fani orqali har tomonlama zamonaviy va qulay usullardan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: assimetriya, funksional, mexanizm, bosh miya, kasb, temperament, qobiliyat, nerv, reflektor, signal tizimi, kognitiv.

Abstract

The structure and functional properties of the human brain play an important role in the formation of a person as a person. Left-handed children usually have different cognitive, psychological and physiological characteristics than right-handed children. The main reason for this is the functional asymmetry of the hemispheres of their brain. When choosing a profession, it is necessary to take into account such characteristics as the interests, abilities, temperament and character of the person. The issue of vocational training of young people has not lost its significance, but on the contrary, is one of the urgent tasks at the state level. On this basis, the science of neuropsychology studies the specific theoretical problems of maturation. This article covers the scientific theoretical foundations of the asymmetry of the cerebral hemispheres and the choice of profession, and shows the ways to use modern and convenient methods in a comprehensive way through the science of neuropsychology.

Keywords: asymmetry, functional, mechanism, brain, profession, temperament, ability, nerve, reflex, signal system, cognitive.

Bosh miya yarimsharlari assimetriyasi – bu bosh miya chap va o‘ng yarimsharlarning tuzilishi va funksional vazifalaridagi farqlarni ifodalaydi. Bu farqlar insonning kognitiv qobiliyatlari, hissiyoti va xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Chap yarimshar: Nutq, yozish va o‘qish jarayonlariga mas’ul, mantiqiy fikrlash va matematik hisob-kitoblar bilan bog‘liq, analitik va ketma-ketlik asosida ishlov berish xususiyatiga ega va o‘ng qo‘l harakatlarini boshqaradi. O‘ng yarimshar: obrazli tafakkur, tasavvur va ijodkorlik uchun javobgar. Emotsiyalarni tushunish va ifodalash bilan bog‘liq, vizual-makonsal (prostranstvennoe) idrokni boshqaradi, musiqa va san’atga qiziqish bilan bog‘liq chap qo‘l harakatlarini boshqaradi. Chapaqaylik — irsiyatga bog‘liq holat; bunda ba’zi maqsadga muvofiq harakatlarni bajarishda ko‘proq chap qo‘l ishlatiladi. Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida funksiyalar chap va o‘ng yarim sharlar o‘rtasida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o‘qish, yozish, hisoblash, analitik faoliyatning (logik, matematik) murakkab shakllari, o‘ng yarim shar zimmasiga esa aniq obrazli faoliyat (tashqi olamdagi narsalarning ko‘rinishi, tovushi, rangi va boshqa bo‘yicha aniqlash) tushadi. Oyoq-qo‘llar harakatini bajarishda ikkala yarim shar qatnashadi; chap yarimshar ixtiyorida o‘ng qo‘l va oyoq, o‘ng yarim shar ixtiyorida chap qo‘l va oyoq bo‘ladi. Ko‘pchilik kishilarda chap yarim shar ustunlik qilganidan o‘ng qo‘l ko‘proq ish bajaradi; o‘ng qo‘l yordamida ishlash, ovqat yeyish va boshqa odatdagi holat. Chapaqaylarda bosh miyaning o‘ng yarim shari funksiyasi chap yarim sharnikidan ustun turadi. Chapaqay bolalarning psixologik va ta’lim xususiyatlari chapaqay bolalar o‘ziga xos fikrlash va muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijodkorlik va tasavvur kuchining rivojlanganligi – O‘ng yarim sharning faolligi tufayli chapaqay bolalar tasviriy san’at, musiqa, adabiyot kabi ijodiy yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli bo‘lishadi.

Yoshlarni kasbiy tayyorlash masalasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, aksincha davlat miqyosidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu maqsadga etishning o‘ziga xos nazariy muammolarini mavjud bo‘lib ulardan biri- o‘quvchilarni ularning qobiliyatlarini kelib chiqib turli kasblarga yo‘naltirishdir. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini zamonaviy kishilik jamiyatida kasb egasiga qo‘yiladigan talablarga to‘liq javob beruvchi mutaxassisni shakllantirishning yangi samarador usulidir. Shunga ko‘ra, inson tomonidan kasb hunarni to‘g‘ri tanlash asosida quyidagi uchta omil yotadi:

- 1) Insonning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari;
- 2) Kasbning insonga qo‘yadigan talablari, xususiyatlari;
- 3) 1 va 2 omillarning o‘zaro bog‘liqliligi. Barcha odamlarning qobiliyatlari, ularning kasb-hunarga yaroqlilik darajasi turlicha bo‘lganligi bois, ularni kasb hunar tanlashga yo‘naltirishda mazkur omil muhim ahamiyatga egadir. Shaxsning individual

qobiliyatlari tanlagan kasbiga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli kasb tanlash va kasb-hunarga yo'naltirishda insonning muayyan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash lozim hisoblanadi. Shu bilan birga insonning ma'lum bir tor mutaxassislikka umrbod yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini hal qilish juda qaltis muammolardan hisoblanadi, chunki hayot davomida inson shakllanadi va rivojlanadi. Inson turli sharoitlarga moslashib ketish, ya'ni kasbiy adabtatsiya qobiliyatiga ega, shuning uchun deyarli har bir sog'lom odam turli kasbiy faolyatni bajara oladi. Ilk bor mazkur masala bo'yicha rus olimi I.P.Pavlovning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilgan bo'lib, bunda odam nerv tizimidagi o'zgarishlari bilan nutq o'rtasidagi bog'liqlikka alohida ahamiyat qaratgan. Inson oliy nerv faolyatini rivojlanishida hamda sifat o'zgarishlarida sodir bo'lishida juda ko'p reflektorli bog'lanishlarni yuzaga kelishida nutq asosiy o'rinni egallagan. Pavlov nutqni "ikkinchi signal tizimi" deb atagan va uni birinchi signal tizimidan yuqori turishini e'tirof etadi. Odamning xulq-atvori esa har ikkala signal sistemasi hamda po'stloq osti tuzilmalarining birgalashib ishlash natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda kognitiv nevrologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga asosan, o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirishdagi samarador yol va vositalardan biri - ularning nerv sistemasini, xususan bosh miya yarimsharlarining funksional tashkil etilishiga oid bo'lgan individual tafovutlarini inobatga olish kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning yetakchi yarimsharlarini hisobga olish ularning kasbiy kamolotidagi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yetakchi "o'ng yarimshar", "chap yarimshar" va "aralash" tiplardagi odamlarda kuzatilgan quydagi farqlavuvchi belgilarga e'tibor qaratish kerak:

1) Chap yarimsharlilariga ratsional-belgili tafakkur xos bo'lganligi bois ularda asosan analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktivlik, operatsiyalrni bajarishga moyillik ko'proq kuzatiladigan o'quvchilar.

2) O'ng yarimsharlari yetakchi bo'lganlar ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishi, intuitiv yollar bilan murakkab savollar yechimi izlab topishni afzal ko'ruvchilar.

3) Aralash yarimsharlar tipiga mansub odamlar vaziyatga qarab chap va o'ng yarimsharlar strategiyasini qo'llaydilar. har ikkala yarimsharning sinxron ishlashi esa inson bosh miya faoliyati samaradorligini oshiradi. Inson bazida o'zi bilmagan holda kasbiy yutuqqa erishish jarayoni ham kuzatiladi. Bu jarayonda inson miya faolyatlarini tizimga ham bog'liq holda kechadi.

Xulosa qilib aytganda kasb tanlash inson bosh miyasining assimetriyasi faoliyatiga bog'liq holda kechadi. O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirganda bosh miya faoliyatining funksional asimmetriyasini hisobga olish muhim hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning noto'g'ri kasb tanlashi ularning umri davomida qiyinchiliklarga va stress holatiga olib keladi. Kasb tanlash ham ijtimoiy hayotga muhim bo'lib nafaqat shaxs hayotiga balki jamiyatga ham o'rnini belgilab beruvchi

jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Galperin. S. N, "Bolalarning fiziologik xususiyatlari". M. Prosveshenie.
2. To'raqulov Yo. X. "Hozirgi zamon biologiyasi va irsiyat masalalari". T, Fan 1969 yil.
3. Y.Azimov, R.Qo'ldoshev."Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari". T.: Turon zamin ziyo, 2017yil.
4. J.Gulyamov, DA.Mamatqulov,M.T. Ahmedova, M.X.Umarova,M.A.Abidjonova. "Neyropedagogika "metodik qo'llanma.2017.
5. www.ziyo.net
6. www.arxiv.uz